

# **SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TADBIRKORLIKNI**

## **RIVOJLANTIRISH**

B.Soatqulov

Jizzax politexnika instituti,

Iqtisodiyot va menejment kafedrasi o‘qituvchisi

Kuzmina Svetlana Nikolaevna

Sankt-Peterburg davlat elektrotexnika universiteti, Iqtisodiyot fanlari doktori,

professor

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida amalda mavjud bo‘lgan soliq siyosatining holati tahlil qilinadi va uni takomillashtirish zarurligi asoslanadi. Soliq tizimi samaradorligini oshirish, tadbirkorlik sub’ektlari uchun qulay muhit yaratish va byudjet daromadlarini barqarorlashtirishga qaratilgan asosiy yo‘nalishlar qamrab olingan. Maqolada, shuningdek, soliq siyosatini isloh qilish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi o‘rganilib, O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tavsiyalar ilgari surildi.

**Kalit so‘zlar:** soliq siyosati, soliq islohoti, soliq siyosati, soliq tizimi, soliq yukini kamaytirish, soliq ma’muriyati, soliq imtiyozlari.

## **РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА ЗА СЧЕТ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВОГО БРЕМЕНИ**

В.Сааткулов Джизакский политехнический институт, Преподаватель кафедры  
экономики и управления

Кузьмина Светлана Николаевна.

Санкт-Петербургский государственный электротехнический  
университет, Доктор экономических наук, профессор

**Аннотация.** В данной статье анализируется состояние существующей налоговой политики в Республике Узбекистан и обосновывается необходимость ее совершенствования. Охвачены основные направления, направленные на повышение эффективности налоговой системы, создание благоприятной среды для хозяйствующих субъектов, стабилизацию доходов

бюджета. В статье также был изучен опыт зарубежных стран по реформированию налоговой политики и выдвинуты рекомендации, которые могут быть применены в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** налоговая политика, налоговая реформа, налоговая политика, налоговая система, снижение налогового бремени, налоговое администрирование, налоговые льготы.

## DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP BY OPTIMIZING THE TAX BURDEN

B.Soatkulov

Jizzakh Polytechnic Institute,

Teacher of the Department of Economics and management

Kuzmina Svetlana Nikolaevna

Saint Petersburg State Electrotechnical University

Doctor of economic sciences, professor

**Annotation.** This article analyzes the state of the tax policy that exists in practice in the Republic of Uzbekistan and justifies the need to improve it. The main directions aimed at improving the efficiency of the tax system, creating a favorable environment for business entities and stabilizing budget revenues are covered. The article also studied the experience of foreign countries in reforming tax policies and put forward recommendations that can be applied in the conditions of Uzbekistan.

**Key words:** Tax policy, tax reform, fiscal policy, tax system, tax burden reduction, tax administration, tax relief.

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatçiliginin takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilash - soliq siyosatini takomillashtirishning ustivor yo'nalichlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o'sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko'rsatdi, xususan:

- ✓ birinchidan, umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtaсидаги soliq yuki darajasидаги farqning sezilarliligi;
- ✓ ikkinchidan, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha joriy etilgan asosan tizimli, soliq to'lovchilarni aylanan mablag'larini muzlatib qo'yishga majbur qiladigan, mahsulotlarning oraliq va yakuniy qiymat qimmatlashishiga olib keladigan hamda kichik biznes o'rtaсида kengaytirish imkoniyatlarini toraytiruvchi to'sqinlik qiluvchi majburiy to'lovlearning mavjudligi;
- ✓ uchinchidan, soliq to'lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to'lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to'lash foni soliq stavkalarining yuqoriligi;
- ✓ to'rtinchidan, imtiyozlarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan tizimning mavjud emasligi sababli sog'lom raqobatni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliq va bojxona, shu jumladan individual xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar hisobiga qo'llab-quvvatlash amaliyotining keng tarqalganligi;
- ✓ beshinchidan, davlat organlari va tashkilotlari o'rtaсида axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma'muriyatiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi;
- ✓ oltinchidan, o'tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va inspektor tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatiga aralashishlarini kamaytirishga to'sqinlik qiluvchi holda amalga oshirilishi, soliq xavf-xatarlarini tahlil qilish va bashoratlashning aniq tizimi yo'qligi;

✓ yettingchidan, mahalliy soliq va yig‘imlarning ma’muriyatçılık mexanizmlarining samarasızlığı oqibatida ularning yig‘iluvchanlik darajasining past emasligi, shuningdek, yig‘ma soliq va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘iluvchanligining ob’ektiv aniqlanish mexanizmlarining to‘liq hisobga olish va aniqlikni ob’ektiv aniqlashning mavjud emasligi.

Bozor iqtisodini shakllantirish modellari sun’iy tarzda emas, balki tabiiy ravishda mamlakatdagi har qanday siyosatga, jumladan, soliq siyosatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Chunki bozor iqtisodini shakllantirishning har bir modeli faqat o‘ziga xos bo‘lgan bir necha xususiyatlarga egaki, ular, albatta, siyosatda o‘z izini qoldiradi.

Byudjet siyosati doirasidagi eng dolzarb muammolarning barchasi, beixtiyor, byudjet defitsitiga borib taqaladi. Birgina uning darajasiga qarab turib, byudjet siyosatining ahvoliga makrodarajada baho berish mumkin. Bir vaqtning o‘zida, byudjet defitsitining darjasи har qanday davlatning moliyaviy mustaqilligini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Soliq siyosati o‘rganishda zamonaviy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etishning fundamental asoslariga jiddiy e’tibor qaratilishi muhim o‘rin tutadi:

- ✓ soliq tizimi va soliq siyosatidagi vaziyat;
- ✓ soliqqa tortish nazariyasining eng dolzarb muammosi va soliq siyosati;
- ✓ soliq tizimi, soliqqa tortish va soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining prinsiplari, ularning soliq siyosati hayotiychanligiga ta’siri;
- ✓ iqtisodni tartibga solish instrumenti sifatida soliqlar va soliq siyosati;
- ✓ soliq siyosati va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari kesimida bayon qilindi.

Soliq yuklamasiga nisbatan bo‘lgan munosabat masalasi soliq siyosatida eng muhim o‘rin tutadi. Amaliyotda unga nisbatan befarq bo‘lgan soliq to‘lovchini topishning iloji yo‘q. Ko‘pchilikning nazarida barcha iqtisodiy muammolarning yechimi, oxir-oqibatda, soliq yuklamasiga borib taqaladi.

Soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari, ularga nisbatan bildirilayotgan e'tirozlar, muammolarni hal etish va e'tirozlarni yumshatish yo'llari ham hozirgi sharoitda soliq siyosatinig dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi global sharoitda zamonaviy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etishni uning fundamental asoslarini aniqlab olishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Soliqlar muammosi bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar amaliyotidagi eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda juda keskin tanqidga uchrayotgan, juda qaynoq munozaralarga sabab bo'layotgan, isloh qilish bo'yicha tahlil ob'ekti va qarama-qarshi g'oyalarga ega bo'layotgan soliqlardan bo'lak islohotlarning boshqa bir yo'nalishi yo'q. Tabiiyki, ideal (benuqson) soliq tizimini jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, undagi yaratilgan ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini hisobga oluvchi muhim nazariy asos yordamidagina yaratish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (so'nggi tahrirlar).
2. Soliq va byudjet siyosatining 2025-yilga oid qonun hujjatlari.
3. Gazeta.uz – Soliq siyosatidagi islohotlar sharhi (2023–2024).
4. Norma.uz – 2024-yilgi soliq o'zgarishlari tahlili.
5. Shoimov Sh.A. – Soliq siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari, PEDAGOGS, 2024.
6. Yaran.uz – 2025-yil uchun Soliq kodeksidagi o'zgarishlar sharhi.
7. O'zbekiston Respublikasi Hukumati axborot xizmati – Soliq siyosati bo'yicha rasmiy ma'lumotlar.